



**«TENGE BANK» ATBDA JISMONIY SHAXSLARNING OMONAT  
OPERASIYALARINI AMALGA OSHIRISH ASOSIY SHARTLARI VA TARTIBIGA  
QO'SHILISH TO'G'RISIDA OMMAVIY OFERTA**

**1. UMUMIY QOIDALAR**

- 1.1.Mazkur Ommaviy oferta (bundan buyon matnda – “Oferta”) «Tenge Bank» ATB (bundan buyon matnda – “Bank”)ning O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 360 va 369-moddalariga muvofiq, Mijozning Bankda jismoniy shaxslarning omonat operasiyalarini amalga oshirish asosiy shartlari va tartibiga qo’shilishi, shuningdek Mijozga mazkur Ofertaning 1.4-bandida belgilangan turdag'i xizmatlar taqdim qilinishi yuzasidan rasmiy taklifi hisoblanadi.
- 1.2.Ofertada Mijoz va Bankning (bundan buyon matnda – “Taraflar”) huquqlari va majburiyatlarini, javobgarligini, komissiya haqini to’lash tartibini va boshqa shartlarni o’z ichiga olgan omonat operasiyalari bo'yicha bank xizmatlarini ko'rsatish asosiy shartlari belgilanadi, ularga rioya qilinishi Taraflar o'zaro munosabatlarining asosiy tamoyili va Shartnoma / Ariza-Ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.3.Mazkur Oferta Mijozga omonat operasiyalarini amalga oshirish tartibini, ularni amalga oshirish va bekor qilish shartlarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi. Oferta Mijoz tomonidan muayyan bank xizmatlaridan foydalanish uchun belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hujjatning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.4.Mazkur Oferta doirasida Mijoz Bankda jismoniy shaxslar uchun quyidagi kabi joiz xizmatlar olishga haqli:
  - milliy valyutada talab qilib olguncha saqlanadigan omonat hisobvarag’ini ochish va unga xizmat ko'rsatish;
  - xorijiy valyutada talab qilib olguncha saqlanadigan omonat hisobvarag’ini ochish va unga xizmat ko'rsatish;
  - muddatli va jamg’arma omonatlarga xizmat ko'rsatish;
  - yuqorida qayd etilgan omonatlardan foydalanib amalga oshiriladigan boshqa turdag'i bank xizmatlari.
- 1.5.Mazkur Ofertani akseptlash orqali Mijoz Bankda barcha joiz xizmatlardan foydalanish majburiyatini o’ziga olmaydi, balki faqat o’z xohish-istagiga asosan yoki zaruriyatga qarab foydalanish majburiyatini oladi.
- 1.6.Mazkur Ofertadan Mijozga (bundan buyon matnda – “Omonatchi”) Bank bo’linmasida yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali xizmatlar taqdim qilish uchun foydalanish mumkin.
- 1.7.Omonatlar bo'yicha hisobvaraq ochish uchun arizani (mazkur Ofertaga 1-sonli Namuna va 2-sonli Namuna) imzolash yoki mazkur Ommaviy ofertani masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi yordamida akseptlash orqali Omonatchi mazkur Oferta va amaldagi Bank Tariflari bilan tanishib chiqqanligini va roziligin tasdiqlaydi, bu mazkur Ofertaning barcha shartlari so’zsiz qabul qilinganligini (akseptlanganligini) anglatadi.
- 1.8.Omonat hisobvarag’iga pul mablag’lari summasingin o’tkazmasi bo'yicha operasiyaning amalga oshirilishi va operasiya amalga oshirilganligi to'g'risida SMS-xabarnoma olinishi Oferta tuzilganligi va/yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi (“Shaxsiy kabinet”, Bank mobil ilovasi va h.k.) orqali Omonatchining talab qilib olguncha saqlanadigan omonatlar,

muddatli yoki jamg'arma omonatlar (bundan buyon matnda – “Omonat”) hisobvaraqlariga pul mablag’lari o’tkazmasining tasdig’i hisoblanadi.

- 1.9. Kirim orderi / memorial order Bank bo’linmasida rasmiylashtirilgan Omonat hisobvaraqlariga pul mablag’lari o’tkazmasining tasdig’i hisoblanadi. Mijozning xohish-istagiga qarab, tasdiqlash sifatida qo’shimcha ravishda Omonat blanki beriladi.
- 1.10. Omonat blanki Bank tomonidan omonat bo'yicha bajarilgan operasiyalarni tasdiqlaydigan va omonat bo'yicha majburiyatlar qabul qilinishini kafolatlaydigan hujjat hisoblanadi. Omonat blanki omonat kassa daftarchasiga tenglashtiriladi.
- 1.11. Omonat qoldiqlari, kirim-chiqim operasiyalari, omonat muddati tugashi to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek omonat bo'yicha boshqa kerakli axborotni Omonatchi SMS-xabarnoma, Bank rasmiy sayti yoki Bank mobil ilovasi orqali ochilgan shaxsiy kabinet xizmatlari yordamida olishi mumkin.
- 1.12. Omonatchi Bank tomonidan taklif qilingan tanlangan Omonatga pul mablag’larini kiritadi, Bank esa Omonat summasini qabul qilish va qaytarish, shuningdek Omonat shartlariga asosan foizlarni to'lash (bunday shartlar belgilangan holatda) majburiyatini oladi.
- 1.13. Bank tomonidan Omonatga qabul qilingan pul mablag’larining qaytarilishi O’zbekiston Respublikasining 2002 yil 05 apreldagi “Banklarda fuqarolarning omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida”gi 360-II-sonli Qonuniga asosan O’zbekiston Respublikasi banklarida fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi.
- 1.14. Omonatchi Bank tomonidan taklif qilinadigan Omonat turini mustaqil ravishda tanlaydi, u Omonatni Bank bo’linmasida yoki masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi orqali ochishi mumkin.
- 1.15. Barcha amaldagi Omonatlar shartlari bilan Omonatchi Bankda umumiyl foydalanish joyida o’rnatilgan axborot stendlarida yoki masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi orqali, shu jumladan Bankning [www.tengebank.uz](http://www.tengebank.uz) veb-saytida tanishib chiqishi mumkin.

## **2. TALAB QILIB OLGUNCHA SAQLANADIGAN OMONATLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH SHARTLARI**

- 2.1.Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlar bo'yicha ochilgan hisobvaraqlar Omonatchining birinchi talabiga binoan pul mablag’lari (to’liq yoki qisman) berilishi shartlarida muddatsiz hisoblanadi.
- 2.2.Bank tomonidan talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatning minimal va maksimal miqdori belgilanmagan.
- 2.3.Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlardagi pul mablag’larini saqlash foizlar hisoblab yozilmagan holda amalga oshiriladi.
- 2.4.Qo’shimcha tovonlar va qisman olinishi summa bo'yicha cheklovsiz nazarda tutilgan.
- 2.5.Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatdagagi pul mablag’larini joylashtirish O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullar yordamida naqd pul shaklida va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.
- 2.6.Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlar Bank bo’linmasiga bevosita kelish tartibida, shuningdek masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi orqali ochiladi.
- 2.7.Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlar Bank bo’linmasiga bevosita kelish tartibida O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan holda, Omonatchi tomonidan Bankda belgilangan shaklda va tartibda mazkur Ofertaga havola qilingan ariza berilishi orqali ochiladi. Bunda, yozma shaklda Sharhnomalar tuzish talab qilinmaydi, Oferta berilgan arizaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 2.8.Omonatchi arizani imzolash orqali mazkur Oferta bilan tanishib chiqqanligini va so’zsiz roziligin tasdiqlaydi.
- 2.9.Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlarning masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi orqali ochilishi «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko’rsatish bo'yicha Universal shartnomaga qo’shilish to'g'risida Ommaviy oferta”ni akseptlash asosida amalga oshiriladi, bu Omonat va Oferta shartlariga so’zsiz rozilikni anglatadi.

- 2.10. Omonatchining Bank bo'linmasiga bevosita kelish tartibida talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatdan pul mablag'lari o'tkazmasi to'g'risida farmoyishi ijrosi faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Omonatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan holda amalga oshiriladi. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatdan pul mablag'lari o'tkazmasi masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimida tegishli so'rovnama berish orqali amalga oshiriladi.
- 2.11. Omonatchining xohishiga ko'ra, talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatni istalgan vaqtida Bankka ariza berish yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi bo'yicha so'rovnama yuborish orqali yopish mumkin.
- 2.12. Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonat bo'yicha pul mablag'lari qoldig'i va 12 oy mobaynida operasiyalar bo'lмаган holatda, Bank tegishli ariza rasmiylashtirilmagan holda hisobvaraqnı avtomatik ravishda yopishga haqli.
- 2.13. Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonat bo'yicha pul mablag'lari qoldig'i bo'lган va 12 oy mobaynida operasiyalar bo'lмаган holatda, Omonatchiga SMS-xabarnoma yuborilganidan so'ng ushbu Omonatlar faoliyatsiz (uxlayotgan) hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Pul mablag'lari o'tkazilganidan so'ng, Omonat hisobvarag'i yopiladi, faoliyatsiz hisobvaraqlarga chiqim operasiyalarini amalga oshirish uchun taqiq qo'yiladi. Omonatchi faoliyatsiz hisobvaraqdagi pul mablag'larini olish istagini bildirgan holatda, u taqiqni olib tashlash va pul mablag'larini yangi omonat hisobvarag'iga o'tkazish uchun Ariza / so'rovnama taqdim qiladi.
- 2.14. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Omonatdan pul mablag'larini qisman olish (asosiy summa) yoki butun summani muddatdan oldin qaytarish «Tenge Bank» ATBda ochilgan hisobvaraqla yoki bank kartasiga amalga oshiriladi. Bunda, boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlarga yoki bank kartalariga kelgusi pul mablag'lari o'tkazilishi amaldagi Bank Tariflariga asosan belgilanadi.

### **3. JAMG'ARMA / MUDDATLI OMONATLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH SHARTLARI**

- 3.1.Muddatli va jamg'arma Omonatlarga pul mablag'larini joylashtirish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullarda va muayyan Omonat shartlariga asosan naqd pul shaklida va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.
- 3.2.Bank bo'linmasiga bevosita kelish tartibida Omonat rasmiylashtirilgan holatda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Omonatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatni va Bank tomonidan belgilangan namunadagi arizani taqdim qiladi. Taraflar muddatli va jamg'arma Omonatlar bo'yicha shartnomada tuzadilar, ushbu shartnomada Omonatning barcha muhim shartlari belgilanadi. Taraflarning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek javobgarligi tuzilgan shartnomaning ajralmas qismi va unga qo'shimcha hisoblangan mazkur Ofertada belgilangan. Rasmiylashtirilgan shartnomada Omonatchi imzosi mazkur Oferta bilan tanishib chiqqanlikni va unga so'zsiz rozilikni anglatadi.
- 3.3.Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali ochilgan Omonatlar Ofertani akseptlash asosida ochiladi, bu Mijozning Bank Tariflariga va Bank tomonidan taklif qilinadigan shartlarga to'liq roziligidini anglatadi.
- 3.4.Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Omonatlar bo'yicha operasiyalar quyidagi holatlarda amalga oshirilmaydi:
- agar masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlari operasiya o'tkazish jarayoni ishtiroychilaridan biri texnik sabablarga ko'ra vaqtincha faoliyat olib bormasa;
  - Bank operasion kuni ochilish / yopilish jarayonida.
- 3.5.Omonat bo'yicha foizlar "Tijorat banklarida foizlarni hisoblab yozish to'g'risida"gi Nizomga asosan (Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 30 yanvarda 1306-sod bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) har kuni hisoblab yoziladi. Bunda, bir yilda hisob-kitob kunlari soni 365 kun deb qabul qilinadi.

- 3.6.Omonat ochilganida foizlar hisoblab yozilishi Omonatchi hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan kundan keyingi kundan e'tiboran boshqa asoslar bo'yicha ular to'liq qaytariladigan / to'liq chegirib olinadigan kungacha har kuni amalga oshiriladi.
- 3.7.Omonatga kelgusi qo'shimcha tovonlarda foizlar hisoblab yozilishi Omonatchi hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan / tushgan kundan keyingi kundan e'tiboran har kuni amalga oshiriladi.
- 3.8.Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari ishlamaydigan / bayram kunlarida o'tkazilgan holatda, ishlamaydigan kundan keyingi birinchi ish kuni pul mablag'lari o'tkazilgan kun hisoblanadi, bunda foizlar hisoblab yozilishi masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimida Omonatni to'ldirish bo'yicha operasiya amalga oshirilgan kundan keyingi kundan e'tiboran amalga oshiriladi.
- 3.9.Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari operasion kun ochilishi / yopilishidan so'ng o'tkazilgan holatda, navbatdagi operasion kun hisobvaraqa pul mablag'lari o'tkazilgan kun hisoblanadi, bunda foizlar hisoblab yozilishi Omonatchi hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan kundan keyingi kundan e'tiboran amalga oshiriladi.
- 3.10. Omonat asosiy summasining qisman olinishi Bankda ochilgan hisobvaraqa yoki bank kartasiga amalga oshiriladi, bunda foizlar kun mobaynida to'ldirilgan summalar hisobga olinmagan holda omonat bo'yicha haqiqiy qoldiqqa hisoblab yoziladi. Foizlar hisoblab yozilishi kun mobaynida Omonat bo'yicha eng kam qoldiq summasiga amalga oshiriladi, bunda Omonat bo'yicha eng kam qoldiq summasi, omonatga to'ldirilgan summalar hisobga olinmagan holda, kun mobaynida omonatdan olingan barcha summalar chegirib qolningan holda minimal qoldiq summasidan iborat bo'ladi.
- 3.11. Bank Omonatchi hisobvarag'inining xatlanishi oqibatida ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalanish imkoniyati bo'lмаган davrda foizlar hisoblab yozilmaydi.
- 3.12. Omonatlar bo'yicha foizlar to'lovi Omonat shartlariga muvofiq amalga oshiriladi, foizlar to'lovi tartibi tuzilgan shartnomada yoki akseptlangan Ofertada belgilanadi.
- 3.13. Omonat muddati tugashi munosabati bilan uni qaytarish kuni dam olish yoki bayram (ishlamaydigan) kunlariga to'g'ri kelgan holatda, omonatni berish dam olish yoki bayram (ishlamaydigan) kunlaridan so'ng birinchi ish (bank) kunida amalga oshiriladi. Bunda, dam olish yoki bayram (ishlamaydigan) kunlari uchun foizlar hisoblab yozilmaydi.
- 3.14. Omonatning muddatidan oldin yopilishi Omonat shartlari asosida faqat Bankda ochilgan hisobvaraqa yoki bank kartasiga amalga oshiriladi va tuzilgan shartnomada yoki akseptlangan Ofertada belgilanadi.
- 3.15. Omonatni saqlash muddati tugaganidan so'ng yoki Omonat muddatidan oldin yopilgan holatda, Omonat pul mablag'lari o'tkazmasidan so'ng Omonat hisobvarag'i avtomatik ravishda yopiladi.
- 3.16. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali boshqariladigan jismoniy shaxslarning Omonatlaridagi pul mablag'lari Bank cassasi orqali naqd pul shaklida berilmaydi.

#### **4. OMONATCHI HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

- 4.1.Mazkur Ofertani akseptlash (rozilik bildirish) orqali Omonatchi mazkur Oferta bilan tanishib chiqqanligini va roziliginu, shuningdek barcha talablari va shartlariga rioya qilish majburiyatini o'ziga olishini tasdiqlaydi, shuningdek Bank Omonatchi uchun kerakli valyutada tegishli hisobvaraqlar ochganligiga rozilik bildiradi.
- 4.2.Omonatni ochishda Omonatchi Bank yuqorida qayd etilgan mobil aloqa raqamiga SMS-xabarnoma shaklida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalariiga zid bo'lмаган boshqa usullar orqali operasiyalar bo'yicha axborot, shuningdek Bank yangiliklarini yuborishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilingan va bunga rozilik bildirgan.
- 4.3.Mazkur Oferta orqali Omonatchi o'zining barcha shaxsiy ma'lumotlarini bank xizmatlaridan foydalanish uchun kerakli bo'lган, olinganlik faktini tasdiqlash imkonini beradigan har qanday shaklda to'plash, ishslash, yig'ish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ishlatish, identifikasiyalash

va bank xizmatlaridan foydalanish maqsadida Bankni qoniqtiradigan shaklda hujjatlarni skanirlash, fotosuratga olish va olingan tasvirlardan foydalanish uchun rozilik beradi.

- 4.3.1. Bank tomonidan Omonatga pul mablag'lari yanglish o'tkazilgan holatda, Mijoz Bankka Mijozning qo'shimcha topshiriqlarisiz Omonatga yanglish o'tkazilgan pul mablag'lari miqdorida va/yoki Omonat summasiga ortiqcha hisoblab yozilgan / to'langan foizlar miqdorida pul mablag'larini Omonatdan chegirib olish huquqini beradi va rozilik bildiradi (oldindan berilgan aksept).

#### **4.4. Omonatchi quyidagilarga haqli:**

- 4.4.1. Omonatga pul mablag'lari o'tkazilganidan so'ng, belgilangan tartibda tasdiqlanishni olish;
- 4.4.2. SMS-xabarnoma va/yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi (Bank mobil ilovasi, Bankning [www.tengebank.uz](http://www.tengebank.uz) rasmiy saytida joylashgan shaxsiy kabinet) orqali Omonat bo'yicha operasiyalar to'g'risida ma'lumotlar olish;
- 4.4.3. Omonat bo'yicha bank xizmatlarini, shu jumladan masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali amalga oshirish;
- 4.4.4. belgilangan tartibda omonat hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalar olish;
- 4.4.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatdan shaxsan foydalanish yoki uchinchi shaxslarga Omonatdan foydalanish huquqini berish;
- 4.4.6. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish;
- 4.4.7. Omonat summasidan va hisoblab yozilgan foizlardan (bunday foizlar bo'lган holatda) erkin foydalanish;
- 4.4.8. Omonat muddati tugaganidan so'ng, shuningdek mazkur Ofertada belgilangan tartibda muddatidan oldin Omonat summasini talab qilib olish;
- 4.4.9. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish.

#### **4.5.Omonatchi quyidagi majburiyatlarga ega:**

- 4.5.1. Omonat va mazkur Oferta shartlari bilan tanishib chiqish;
- 4.5.2. mazkur Oferta shartlariga rioya qilish;
- 4.5.3. Bankka faqat to'g'ri, aniq, asoslangan ma'lumotlarni taqdim qilish;
- 4.5.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlar normativ hujjatlariga qat'iy muvofiqlikda hisobvaraqlar bo'yicha operasiyalar o'tkazish;
- 4.5.5. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Omonat ochilganida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi foydalanuvchi bo'lisch, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda raqamli identifikasiyalash, verifikasiyalashdan o'tish va Omonatning boshlang'ich summasini (tovonini) to'lash uchun bank kartochka hisobvarag'ida yetarlicha pul mablag'lariiga ega bo'lisch;
- 4.5.6. hisobvaraqlar yanglish o'tkazilgan va/yoki hisobvaraqlardan yanglish chegirib olingan pul mablag'lari aniqlangan holatda, darhol bu haqda Bankka ma'lum qilish va hisobvaraqlardan tadbirdorlik faoliyati bilan bog'liq operasiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;
- 4.5.7. operasiya amalga oshirilgan kunda Bank Tariflarida nazarda tutilgan Omonat bo'yicha bank operasiyalari bilan bog'liq komissiya haqlarini to'lash;
- 4.5.8. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Omonat mablag'laridan foydalanish huquqini beradigan ma'lumotlar (login, parollar, PIN kodlar) maxfiyligini ta'minlash va ularni uchinchi shaxslarga bermaslik;
- 4.5.9. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali login va parolidan har qanday ruxsatsiz foydalanish holati va/yoki har qanday xavfsizlik buzilishi to'g'risida Bankni darhol xabardor qilish;
- 4.5.10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatdan shaxsan foydalanish yoki notarial tasdiqlangan vakolatnomani rasmiylashtirish orqali uchinchi shaxslarga Omonatdan foydalanish huquqini berish;
- 4.5.11. turar joy manzili, ish joyi, familiyasi yoki ismi o'zgarganligi to'g'risida, shuningdek

Omonatchining mazkur Oferta bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lган boshqa vaziyatlar to'g'risida Bankka 3 (uch) kalendar kuni mobaynida ma'lum qilish;

- 4.5.12. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.
- 4.6.Omonatchi vafot qilgan holatda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan trtibda uning barcha huquqlari va majburiyatlari uning merosxo'rlariga o'tadi.

## 5. BANK HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

### 5.1.Bank quyidagilarga haqli:

- 5.1.1. Omonatchi tomonidan Omonat summasi Omonat muddati tugagungacha muddatidan oldin talab qilinganida Omonat shartlariga asosan Omonatni qaytarish;
- 5.1.2. tegishli davlat organlari ijro hujjatlari tushgan holatda, Omonatchining e'tirozlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rish (pul mablag'larini xatlash, pul mablag'larini akseptsiz tartibda chegirib olish, hisobvaraq bo'yicha operasiyalarni to'xtatib qo'yish va h.k.);
- 5.1.3. Omonatchining hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari bo'yicha bank operasiyalari xizmatlari ko'rsatilganligi uchun belgilangan Bank Tariflariga asosan, shu jumladan Omonatchining qo'shimcha topshirig'isiz (akseptsiz tartibda) komissiya haqini olish;
- 5.1.4. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadlarida Bank Omonatchidan uni identifikasiyalash imkonini beradigan va hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilayotgan operasiyalar qonuniyligini tasdiqlovchi axborot va hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli;
- 5.1.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda hisobvaraqlar bo'yicha operasiyalarni to'xtatib qo'yish yoki ular ijrosini rad qilish;
- 5.1.6. Bank yangiliklarini, reklama materiallari va Bankning tijorat takliflarini, shuningdek Omonatchining hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operasiyalar bo'yicha axborotni Bank tizimida Omonatchi tomonidan qayd etilgan manzillarga / telefon raqamlariga pochta jo'natmalar, elektron aloqa vositalari orqali SMS-xabarnomalar shaklida yoki boshqa usulda yuborish. Omonatchi yuborilgan xat-xabarlardan uchinchi shaxslar foydalanishi bilan bog'liq barcha xavflar uchun javobgar bo'ladi;
- 5.1.7. Omonatlar, ulardagi qoldiqlar va mavjud bo'lмаган operasiyalarni 12 oy mobaynida faoliyatsiz hisobvaraqq'a o'tkazish, Bank ichki normativ hujjatlariga asosan mijoz tomonidan Bankka tegishli topshiriq (ariza / so'rovnama) taqdim qilingungacha chiqim operasiyalar amalga oshirilishi uchun taqiqlov belgilash;
- 5.1.8. operasiyalar summasiga limitlar belgilash;
- 5.1.9. operasiyalar mijozning KYC anketasida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lмаган holatda, operasiyalarni to'xtatish, xizmatlar taqdim etilishini rad qilish va bir tomonlama tartibda qonun hujjatlariga asosan mazkur Ofertani bekor qilish;
- 5.1.10. mijoz operasiyalarini o'rganish maqsadida qo'shimcha axborot talab qilib olish;
- 5.1.11. Mijoz yoki uning operasiyasi sanksiyalar ta'siriga tushgan va bunday xavf mavjud bo'lган holatda, operasiyalar o'tkazilishini rad qilish va bir tomonlama tartibda qonun hujjatlariga asosan mazkur Ofertani bekor qilish;
- 5.1.12. Mijozning hisobvaraqlari va operasiyalar bo'yicha bank sirini ta'minlash;
- 5.1.13. Bank O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari normalariga asosan Mijoz hisobvaraqlari amal qilishini to'xtatib qo'yishga haqli;
- 5.1.14. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa huquqlardan foydalanish.

## **5.2.Bank quyidagi majburiyatlarga ega:**

- 5.2.1. Bankning amaldagi va taklif qilinadigan omonatlari shartlarini o'z rasmiy veb-saytida joylashtirish: [www.tengebank.uz](http://www.tengebank.uz);
- 5.2.2. Omonatchidan kerakli summani, shuningdek, agar Omonat shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, qo'shimcha tovonlarni olish va uni Omonatga o'tkazish;
- 5.2.3. Omonat, tuzilgan Shartnoma / Oferta, shuningdek mazkur Oferta shartlariga muvofiq foizlarni hisoblab yozish va to'lash;
- 5.2.4. Shartnoma / Ofertaga asosan Omonat muddati tugaganidan so'ng Omonat summasini qo'shimcha tovonlar bilan birga (agar bunday tovonlar bo'lsa) qaytarish;
- 5.2.5. hisobvaraqlardagi mablag'larning tegishlicha saqlanishini va daxlsizligini ta'minlash. Faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda hisobvaraqlardagi mablag'lar xatlanishi yoki hisobvaraqlar bo'yicha operasiyalar to'xtatib qo'yilishi mumkin;
- 5.2.6. bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlar himoya qilinishini ta'minlash, faqat amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va tartibda Omonatchi va Omonat to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilishi mumkin;
- 5.2.7. mazkur Ofertaga, shuningdek Bank Tariflariga o'zgartirishlar kiritilgan holatda, Bank o'z rasmiy veb-saytida joylashtirishi shart: [www.tengebank.uz](http://www.tengebank.uz);
- 5.2.8. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa majburiyatlarni, shu jumladan Omonatchi oldidagi majburiyatlarni bajarish.

## **6. TARAFLAR JAVOBGARLIGI**

6.1.Taraflar tomonidan Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi uchun Oferta shartlarini buzgan Taraf O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

### **6.2.Omonatchi quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:**

- 6.2.1. Omonat to'g'risida va masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Omonat operasiyalari to'g'risida olingan ma'lumotlarning tegishlicha saqlanishi;
- 6.2.2. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Omonat mablag'laridan foydalanish huquqini beradigan ma'lumotlar (login, parollar, PIN kodlar) tegishlicha saqlanishi va maxfiyligi ta'minlanishi, shuningdek bunday axborotning tegishlicha saqlanishi va maxfiyligi ta'minlanishi bo'yicha talablarga Omonatchi tomonidan rioya qilinmaganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar uchun;
- 6.2.3. Omonatchining qasddan maqsadi yoki ehtiyyotkorligi natijasida Omonatchiga mazkur Oferta bo'yicha Bank tomonidan ko'rsatiladigan masofaviy xizmatlardan uchinchi shaxslarning noqonuniy foydalanishi va bunday noqonuniy foydalamish tufayli yuzaga kelgan barcha oqibatlar uchun.

### **6.3.Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:**

- 6.3.1. Mijozning manzillari va/yoki telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqamlari, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarishlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmagan, buning oqibatida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'xtatib qo'yilishi yoki bank sirini o'z ichiga olgan axborot oshkor qilinishi mumkin bo'lgan holatda Mijoz nomidan o'tkazilgan operasiyalar;
- 6.3.2. Omonatchi yoki uning huquqiy vorisi shartnoma amal qilishi to'xtatilganligi to'g'risida yozma shaklda Bankni o'z vaqtida xabardor qilmagan holatda o'tkazilgan operasiyalar;
- 6.3.3. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali, shuningdek Omonatchining mobil telefoni begona shaxslar ixtiyoriga tushib qolgan holatlarda boshqa shaxslar tomonidan ruxsatsiz o'tkazilgan operasiyalar;
- 6.3.4. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimidan foydalanish imkonini beradigan login va parolning Omonatchi tomonidan boshqa shaxslarga oshkor qilinishi;
- 6.3.5. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimida Omonatchining hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirish natijasida yetkazilgan moliyaviy va/yoki biron-bir boshqa zarar;

- 6.3.6. Omonatchining ehtiyyotsizligi, qasddan niyati, harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Omonatchining har qanday moliyaviy yo'qotishlariga olib kelgan / olib keladigan uchinchi shaxslar tomonidan operasiyalar amalga oshirilishi;
  - 6.3.7. Mijoz tomonidan, shu jumladan bank-korrespondent tomonidan moliyaviy sanksiyalar va taqiqovlarga rioya qilinmaganligi natijasida to'xtatib qo'yilgan yoki ishga solmay qo'yilgan Mijoz operasiyalar;
  - 6.3.8. Omonatchi tomonidan masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi logini / parolini oshkor qilish, Omonatchining uyali telefon raqamidan boshqa shaxslar foydalanishi va masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimidan ruxsatsiz foydalanishning barcha holatlari to'g'risida yozma shakldagi ariza taqdim qilingungacha Omonat bo'yicha ruxsatsiz o'tkazilgan operasiyalar.
- 6.4.Taraflar mazkur Oferta bo'yicha o'z majburiyatları to'liq yoki qisman bajarilmaganligi yengib bo'lmas kuch vaziyatlari oqibatida, ya'ni favqulodda va ushbu sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar, tabiat sharoitlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida majburiyatlar ijrosi keyinga qoldirilishi (moratoriyl), tegishli munosabatlarni tartibga soladigan qonun yoki boshqa hujjatning amal qilishi to'xtatib qo'yilishi oqibatida yuzaga kelgan holatda, ushbu majburiyatlar tegishlicha bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

## **7. BOSHQA SHARTLAR**

- 7.1.Mazkur Ofertadan yoki u tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni Taraflar ikki tomonlama muzokaralar orqali hal qilishga intiladilar. Taraflar kelishuvga erishmagan holatda, ular o'rtasidagi nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda da'vogarning turar joy manzili bo'yicha umumiylardan yurisdiksiya sudida hal qilinadi.
- 7.2.Omonatchi Bank operasion kuni muddatlari to'g'risida xabardor qilingan, operasion kun yopilganidan so'ng masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali operasiyalar amalga oshirilgan holatda, Omonat bo'yicha operasiya navbatdagagi operasion kunda aks ettirilishi to'g'risida ogohlantirilgan.
- 7.3.Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan holatlarda, Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga amal qiladilar.
- 7.4.Mazkur Oferta Mijoz / Omonatchi tomonidan akseptlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va Taraflar tomonidan mazkur Oferta bo'yicha barcha majburiyatlar to'liq bajarilgungacha amal qiladi.

## **8. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI**

### **«Tenge Bank» ATB**

Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy.

MFO: 01176, STIR: 207297973

Kontakt-markaz raqami: 1245

**“«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarning omonat operasiyalarini amalga oshirish  
asosiy shartlari va tartibiga qo’shilish to’g’risida Ommaviy oferta” ga  
3-sonli ilovaga 1-sonli Namuna**

**TALAB QILIB OLGUNCHA SAQLANADIGAN OMONATNI OCHISH UCHUN  
ARIZA**

\_\_\_\_\_ (bank nomi)

\_\_\_\_\_ (Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi)

\_\_\_\_\_ dan  
(Ariza beruvchi F.I.Sh.)

**ARIZA**

Sizdan \_\_\_\_\_ (valyuta nomi)  
\_\_\_\_\_ nomiga

talab qilib olguncha saqlanadigan omonatni ochishni so’rayman.  
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

O’z imzoiim (men tomondan vakolat berilgan shaxs imzosi) namunasini ma’lum qilaman, u N hisobvarag’im bo'yicha operasiyalarni amalga oshirishda majburiy hisoblanadi.

\_\_\_\_\_ Omonat va oferta shartlari bilan tanishib chiqdim.

Sana: "\_\_\_" \_\_\_\_ 20\_\_ y.

\_\_\_\_\_ (hisobvaraq egasining imzosi)

**BANK QAYDI**

Hisobvaraqaqni ochish uchun hujjatlar tekshirildi:

Menedjer

Talab qilib olguncha saqlanadigan omonatni ochishga ruxsat beraman  
\_\_\_\_\_ (imzo)  
\_\_\_\_\_ (valyuta nomi)

\_\_\_\_\_ (Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi)

\_\_\_\_\_ (imzo)

Hisobvaraq ochildi: "\_\_\_" \_\_\_\_ 20\_\_ yil.

Hisobvaraq raqami: \_\_\_\_\_

Boshqa qaydlar: \_\_\_\_\_

“«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarning omonat operasiyalarini amalga oshirish  
asosiy shartlari va tartibiga qo’shilish to’g’risida Ommaviy oferta”ga  
3-sonli ilovaga 2-sonli Namuna

**JAMG’ARMA / MUDDATLI OMONATNI OCHISH UCHUN ARIZA**

\_\_\_\_\_  
(bank nomi)  
\_\_\_\_\_  
(Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi)  
\_\_\_\_\_  
dan  
(Ariza beruvchi F.I.Sh.)

**ARIZA**

Men, \_\_\_\_\_, Sizdan \_\_\_\_\_  
(Ariza beruvchi F.I.Sh.) (muddatli / jamg’arma)  
omonatni \_\_\_\_\_  
(omonat nomi, foiz stavkasi, muddati)  
\_\_\_\_\_ nomiga \_\_\_\_\_  
(Omonatchi F.I.Sh.) (hisobvaraq raqami)  
\_\_\_\_\_ summada ochishni so’rayman.  
(summa raqamlar va harflar bilan)

Omonat summasini talab qilib olguncha saqlanadigan depozitga o’tkazishingizni so’rayman  
(hisobvaraq raqami)

Sana: "\_\_\_" \_\_\_\_ 20\_\_ y.

\_\_\_\_\_  
(Ariza beruvchi F.I.Sh. va imzosi)

\_\_\_\_\_  
(Menedjer F.I.Sh. va lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)  
\_\_\_\_\_  
(imzo)

(Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi)